

Shahmoradov A.V.,  
Mammadova N.A.

# MILLIY IQTISODIYOT TARKIBINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'NALISHLARI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

VAXABOV A.V., RAHMATOVA N.A.

**MILLIY IQTISODIYOT TARKIBINI  
DIVERSIFIKATSIYALASH  
YO'NALISHLARI**

**Monografiya**



**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2024**

UO'K: 338.(571.1)

KBK: 65.5(50'z)

M 96

Vaxabov A.V., Rahmatova N.A.

Milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash yo'nalishlari [Matn]:  
monografiya / A.V. Vaxabov, N.A. Rahmatova. – Toshkent: Bookmany  
print, 2024. – 144 b.

**Taqrizchilar:**

**Hoshimov P.Z.** – Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy  
Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida  
professori, i.f.n.

**Dodiyev F.O.** – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Bank ishi va  
auditi kafedrasida mudiri, dotsent, i.f.n.

Monografiyada milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning  
mohiyati va yo'nalishlari, milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash  
to'g'risidagi ilmiy nazariyalar tahlil qilingan, milliy iqtisodiyotning  
mohiyati va tarkibi, unga ta'sir qiluvchi omillar tadqiq etilgan, milliy  
iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashdagi xorijiy tajribalar qiyosiy  
o'rganilib, O'zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari  
asoslangan. Shu bilan birga, investisiyalarning tarkibiy siyosatni amalga  
oshirishdagi o'rni iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida uning  
tarkibini diversifikatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Ushbu monografiya makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot va iqtisodiyot  
nazariyasi ixtisosliklarida ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi tayanch  
doktorant va mustaqil izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar,  
magistrantlar va iqtisodiyotga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Monografiya F-1-115 shifrlil "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash  
va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslarini  
takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida  
tayyorlangan.

O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnik kengashi tomonidan  
(2024-yil 27-sentyabr, 9-sonli majlis bayoni) chop etishga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-06-220-9

UZMU

© Vaxabov A.V., Rahmatova N.A., 2024.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2024.

AXBOROT-RESURS

MARKAZI

2025/45  
12



## KIRISH

Jahonda globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda, Umumjahon banki guruhi mutaxassislari jahon real yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atini 2023 yildagi 2,6 %dan 2024 yilda 2,4 %gacha pasayishini bashorat qilishgan. 2025 yilda ushbu ko'rsatkich 2,7 %ga qadar ko'tarilishi kutilmoqda.<sup>1</sup> Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, foiz stavkalarining o'sishi va byudjet imkoniyatlarining qisqarishi tufayli, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Uzoq muddatli davrda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan izchil, chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirishning nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon iqtisodiyoti tarmoqlarida innovasion omillar asosida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirishga bag'ishlangan maqsadli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarkibiy o'zgarishlarning barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'sirini chuqur tahlil qilish, yuqori texnologiyali xizmat ko'rsatish sohalarining jadal o'sishiga iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash orqali erishish, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida turli mulkchilik shakllarining samaradorligini baholash, iqtisodiyotda davlatning boshqaruv vazifalarini optimallashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon xo'jaligidagi resessiya holati yuqori texnologiyali va innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarishda investision faollikni oshirish asosida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida "... barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash ...", "2030 yilga

---

<sup>1</sup>World Bank Group Flagship Report Ghoshal Economic Prospects (2024).  
<https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/7fe97e0a-52c5-4655-9207-c176eb91b66a/content>.

qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “oʻrta yuqori daromadli davlatlar” qatoriga kirish”, “2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4200 dollarga yetkazish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish<sup>2</sup> masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy siyosat borasida qator ijobiy natijalarga erishilganiga qaramasdan, ayrim tarmoq va sohalar oʻrtasida turli darajadagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Iqtisodiyotda jadal tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash masalasi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻlgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

**Ilmiy monografiyaning maqsadi** milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning zaruriyati va ustuvor yoʻnalishlarini tadqiq etish;

milliy iqtisodiyot tarkibi, shakllari va uni belgilovchi omillarni tahlil qilish;

milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning ilgʻor xorijiy tajribasini qiyosiy tahlil qilish va undan Oʻzbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning huquqiy-institusional asoslarini tahlil qilish, baholash va ularni takomillashtirish yoʻnalishlarini aniqlash;

milliy iqtisodiyotning rivojlanish holatini baholash, milliy iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarning rivojlanish tendensiyalari va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash;

milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash jarayonlarini chuqurlashtirish yoʻnalishlari va ularni moliyalashtirishni aniqlash;

uzoq muddatli davrda milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning muqobil ssenariy prognozlarini ishlab chiqish.

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони, 11.09.2023. <https://lex.uz/docs/6600413>.



Ilmiy monografiya o‘z oldiga qo‘ygan maqsaddan chiqib kelgan holda kirish, mantiqiy bog‘langan o‘zaro uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalaradn iborat.

**Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, maqsadi va vazifalari bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Monografiyaning **“Milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash zarurligi, ushbu ilmiy nazariyalarning rivojlanishi, milliy iqtisodiyot tarkibi, shakllari va uni belgilovchi omillar, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning xorij tajribasi va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Ilmiy monografiyaning ikkinchi bobi **“Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va uning rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning huquqiy-institusional asoslari o‘rganilgan, milliy iqtisodiyotni investisiyalash va undagi tarkibiy rivojlanish trendlari asoslangan, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida uning tarkibini diversifikatsiyalashning xususiyatlari tadqiq qilingan.

Monografiyaning **“Milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida milliy iqtisodiyotni investisiyalash va uning tarkibini diversifikatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan, uzoq muddatli davrda milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning muqobil ssenariylari va prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Ilmiy monografiyaning xulosa qismida amalga oshirilgan ishlar statistika va analitik, ekonometrik tahlillar natijasida ilmiy xulosalar olingan, milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning takomillashtirish borasidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## I BOB. MILLIY IQTISODIYOT TARKIBINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

### 1.1. Milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash zarurligi to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan tuzilishi va uning tashkil topishi, ko'p jihatdan, mamlakatning tanlab olgan iqtisodiy rivojlanish modeliga bog'liq bo'ladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari tarkibini diversifikatsiyalash amaliyotiga tayangan holda aytish mumkinki, amalga oshirilgan islohotlar natijasida ushbu mamlakatlar iqtisodiyotini xomashyoga ixtisoslashgan iqtisodiy munosabatlar tizimidan bugungi kunda intellektual, ilm-fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan iqtisodiy tarmoqlarni shakllantirish va ularni rivojlantirish darajasiga erishildi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash muammosiga bag'ishlangan ko'p sonli ilmiy izlanishlar mavjud bo'lgani holda, hanuzgacha uning mohiyatini to'liq ochib beradigan yagona yondashuv yo'q. Ularda "diversifikatsiya" atamasiga iqtisodiy kategoriya sifatida bir qator yondashuvlarni ko'rish mumkin. Xususan, "Katta iqtisodiy lug'at" da ushbu atamaga ikki xil ta'rif berilgan: 1) turli yo'nalishlarni qamrab olgan, keng qamrovli rivojlanish; 2) turli riskli vaziyatlarni inobatga olgan holda, iqtisodiy zararni kamaytirish maqsadida kapitalning turli iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi.<sup>3</sup> "Makmillanning zamonaviy iqtisodiy nazariyaga oid lug'ati" da "diversifikatsiya" atamasiga iqtisodiy kategoriya sifatida berilgan ta'rif quyidagicha: 1) mintaqalar bo'yicha sanoat tarmoqlarining turli yo'nalishlardagi rivojlanganlik holati; 2) ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning keng ko'lamlı assortimenti.<sup>4</sup> "Iqtisodiy-matematik ensiklopedik lug'at" da iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash jarayoniga iqtisodiy kategoriya sifatida berilgan ta'rifga ko'ra, u turli yo'nalishdagi xo'jalik yuritish faoliyatini

<sup>3</sup>Большой экономический словарь / под ред. А.Н. Азрилияна. – М., 1997. – С.132.

<sup>4</sup>Словарь современной экономической теории Макмиллана. – М.: ИНФРА-М, 2003. – С. 136.



rivojlantirish va ularning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan jarayon hisoblanadi.<sup>5</sup>

Bugungi kunda “diversifikatsiya” atamasi iqtisodiy fan muomalasida keng qo'llaniladigan kategoriyalardan hisoblanadi. Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida diversifikatsiya jarayonlarining amaliyotga tatbiq etilishi boshlangan bo'lsa, “diversifikatsiya” tushunchasi iqtisodiy fan muomalasida iqtisodiy kategoriya sifatida 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab qo'llanila boshlandi.<sup>6</sup> Ushbu atama amaliyotda ilk qo'llanila boshlagan davrlarda “diversifikatsiya” deganda, ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning nomenklaturasini kengaytirish tushunilgan.<sup>7</sup>

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, “diversifikatsiya” atamasining tor va keng ma'nodagi ta'riflari mavjud. Keng ma'noda, diversifikatsiya – bu xo'jalik yurituvchi sub'yekt (firma) tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning nomenklaturasini kengaytirish, shuningdek, firma faoliyatini geografik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvining yangi yo'nalishlariga moslashuvi, yangi faoliyat turlarining o'zlashtirilishi kabi yo'nalishlarda kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda, firma faoliyatining bir tarmoqdan boshqa bir tarmoqda yo'lga qo'yilishi ham nazarda tutiladi.<sup>8</sup>

Tor ma'noda, “diversifikatsiya” atamasi korxonaga kapitalining uning faoliyat turi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, uning ishlab chiqarish jarayoniga aloqasi yo'q bo'lgan tarmoqlarga kirib borishini anglatadi.<sup>9</sup>

“Diversifikatsiya” atamasining mazmunidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, uzoq muddatli davrda iqtisodiyotning barqaror

---

<sup>5</sup>Данилов-Данильян В.И. Экономико-математический энциклопедический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2003.

<sup>6</sup>Большой энциклопедический словарь / Под ред. А.М. Прохорова. – М.: Большая Росс. Энцикл. [Текст], 1998. – 1456 с.

<sup>7</sup>Яковец Ю.В. Циклы. Кризисы. Прогнозы [Текст] / – М.: Наука, 1999. – С. 446.

<sup>8</sup>Базовые модели стратегического планирования / А.П. Петров, С.М. Климов, Г.А. Буренина / Известия Санкт-Петербургского университета экономики и финансов [Текст], 1998. – №2. – С. 19-26; Аронов А.М. Диверсификация производства: теория и стратегия развития / А.М. Аронов, А.П. Петров. – СПб.: Лениздат [Текст], 2000. – 128 с.

<sup>9</sup>Booz Allen, Hamilton. Diversification. A Survey of European Chief Executives / New York: Booz, Allen and Hamilton [Текст], 1985. – P. 378.



rivojlanishini ta'minlash maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash jarayonida tanlangan tarmoqlarning raqobatdoshligini ham inobatga olish zarur. Shu bilan birga, tanlangan tarmoqda diversifikatsiyalash jarayonini amalga oshirish yo'nalishlarini ham aniq belgilash maqsadga muvofiq.

R.A. Abramov<sup>10</sup> va R. Arendlar<sup>11</sup> tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash uzoq muddat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ammo, bugungi kun jadal texnologik rivojlanish tendensiyalarini inobatga olib aytish mumkinki, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash jarayonining qisqa muddatlarda amalga oshirilishiga ham e'tibor qaratish lozim. Fikrimizcha, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash jarayoni qanchalik uzoq davom etsa, kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichi shunchalik past darajada bo'lishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar milliy iqtisodiyotini diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlarida jamlangan kapitalni an'anaviy yoki kam daromadli tarmoqlardan yuqori darajadagi rentabellik ko'rsatkichiga ega, ilm-fan sig'imkorligi yuqori va katta daromad keltirish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa tarmoqlarga o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda yuqori darajadagi iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalashning jahon amaliyoti tahlili natijalariga ko'ra, uning rivojlanish davrini turli bosqichlarga ajratish mumkin. Jumladan, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash yo'nalishlari, erishilgan natijalar va samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra uning rivojlanish bosqichlari quyidagi to'rt bosqichdan iborat, deb hisoblaymiz (1-ilova):<sup>12</sup>

<sup>10</sup> Абрамов Р.А. Теоретические подходы к диверсификации экономических систем // Экономический анализ: теория и практика, 2009. – №28 (157). – С. 37-42.

<sup>11</sup> Аренд Р. Как поддерживать экономический рост в ресурсно-зависимой экономике? // Вопросы экономики, 2006. – №7. – С. 24-28.

<sup>12</sup> Манба: Berry С.Н. Corporate Growth and Diversification / Journal of Law and Economics [Текст] Vol.14, №2. – October, 1971. – P. 371-383; Pitts, Hopkins, 1982. Pitts R.A., Hopkins, H.D. Firm diversity: conceptualization and measurement / Academy of Management Review. –

1. Birinchi bosqich XIX asr oxiridan to 1920-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, "ommaviy ishlab chiqarish bosqichi" deb ataladi. Ushbu bosqichda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasida ixtisoslashuvni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilib, buning natijasida, ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvi jarayoni vujudga keladi va tarmoqlarda ichki kapital markazlashuviga erishiladi. Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga sarflanayotgan xarajatlar hajmi qisqarib, tovar-xizmatlar bozori rivojlanib boradi.

2. Ushbu bosqich "ommaviy mahsulot sotish" davri deb atalib, 1920-yillarning oxirlaridan to 1950-yilning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda sanoat tarmoqlarida kapital konsentratsiyalashuvi vujudga kelib, mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarida kapitalning haddan ziyod jamlanishi namoyon bo'lib, tovarlararo va tizimli raqobat rivojlangan. Natijada, tarmoq bozorlari shakllanib, mahalliy va tarmoq bozorlarining ko'lami kengayib borgan. Ushbu bosqichda diversifikatsiya jarayonlari gorizontal shaklda amalga oshirilgan bo'lib, mahsulot (tovarlar) diversifikatsiyasiga ham e'tibor qaratilgan.

3. "Postindustrial jamiyat bosqichi" 1950-yillarning o'rtalaridan boshlanib, XX asr oxirlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda, ayrim mamlakatlarda diversifikatsiya jarayonlariga ustuvorlik qaratilishi asosida sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish natijasida, kapitalning haddan ziyod jamlanishi ko'zga tashlanadi. Natijada, ushbu mamlakatlar tomonidan nisbatan past rivojlanish ko'rsatkichiga ega mamlakatlarga kapital eksporti amalga oshirildi. Shu bilan birga, jahon miqyosida ishlab chiqarish hajmi ortib, global miqyosda raqobat muhiti shakllandi va rivojlandi. Xalqaro integratsiya jarayonlari chuqurlashib, jahon miqyosida multiplikativ samaradorlikka erishila boshlandi.

---

№7 [Текст], 1982. – Pp. 620-629; Mintsberg N., Ghoshal S. Diversification and Diversification / California Management Review Fall [Текст], 1994. Vol. 3. P.8-27; Kranenburg H.L. van. Diversification Strategy, Diversity and Performance among Publishing Companies / H.L. van Kranenburg. – 6th Media Economics Conference [Текст] – HEC Montreal, Canada. – 2004. – May. – P.12-15; Прищенко Е.А. Влияние различных типов диверсификации на стратегическое развитие и конкурентные преимущества компании / Мир экономики и управления, 2007. – Т.7, №2. – С.53-61.



4. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonlari rivojlanishining soʻnggi bosqichi XX asr oxirlaridan to bugungi kungacha boʻlgan davrni oʻz ichiga olib, ushbu bosqich iqtisodiy adabiyotlarda “*axborot va kompyuter texnologiyalari davri*” deb nomlanadi. Bu davrda xalqaro bozorlar shakllanib, rivojlanish tendensiyasiga ega boʻlib, raqobat jarayonlari xalqaro miqyosda chuqurlashdi.


Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalashning rivojlanish bosqichlari tahlilidan koʻrinadiki, bugungi kunda diversifikatsiya jarayonlarini ularning namoyon boʻlishi, turi, shakli va rivojlanish yoʻnalishlari, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish strategiyasi bilan aloqadorligini inobatga olib turli guruhlarga ajratish mumkin (1.1-rasm).

Namoyon boʻlish shakliga koʻra, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash konsentrik, gorizontol va sof (konglomerat<sup>13</sup>) diversifikatsiya jarayonlariga ajratiladi<sup>14</sup>:

---

<sup>13</sup>Ф. Котлер ёндашувига кўра, соф диверсификация “конгломерат диверсификация” деб номланади.

<sup>14</sup> Новицкий Е.Г. Стратегическое планирование в высокодиверсифицированных корпоративных структурах: о мировой практике и опыте АФК “СИСТЕМА” // РЭЖ, 1999. – №8. – С. 72; Акимцев А.Ю. Управление диверсификацией промышленного производства. Автореф. дисс. ... к.э.н. – Саратов, 2001. – С. 26; Мейер А., Михайлов В., Пруцков А., Тяжов А. Диверсификация промышленного производства: от теории к практике. – Кострома-Потсдам: Костромской гос. технол. ун-т, 2007. – С. 15.



**1.1-rasm. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash jarayonlarining guruhlanishi<sup>15</sup>**

*konsentrik diversifikatsiyalash*, odatda, texnik jihatdan yoki marketing nuqtai nazaridan o'xshash bo'lgan tovar yoki xizmatlar turlarini ko'paytirishni nazarda tutadi. Ushbu mahsulotlar

<sup>15</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: Новицкий Е.Г. Стратегическое планирование в высокодиверсифицированных корпоративных структурах: о мировой практике и опыте АФК "СИСТЕМА" // РЭЖ, 1999. – №8. – С. 72; Акимцев А.Ю. Управление диверсификацией промышленного производства. Автореф. дисс. ... к.э.н. – Саратов, 2001. – С. 26; Мейер А., Михайлов В., Пруцков А., Тяжов А. Диверсификация промышленного производства: от теории к практике. – Кострома-Потсдам: Костромской гос. технол. ун-т, 2007. – С. 15.



“*innovation mahsulotlar*” deb atalib, ular xaridorlarni ushbu tovar-xizmatlardan foydalanishini yanada rag‘batlantirish vazifasini ham bajaradi;

*gorizontal diversifikatsiya* ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan, yangi turdagi tovar-xizmatlarni ishlab chiqarishni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu diversifikatsiya shakli marketing faoliyati natijasida iste‘molchilarning maqsadli guruhlanishi asosida, ularning istak-hohishlarini inobatga olgan holda, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon iqtisodiy adabiyotlarda “*gorizontal-segmentlashgan diversifikatsiyalash*” deb ataladi;

*sof (konglomerat) diversifikatsiyalash* jarayoni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari, ularni ishlab chiqarish texnologiyasiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Iqtisodiy fanda bu turdagi diversifikatsiya jarayonlari “*lateral diversifikatsiya*” deb ataladi. Bunday diversifikatsiya jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarish korxonalarini portfelini tubdan yangilash imkoniyati vujudga keladi.

Amalga oshirilish turiga ko‘ra, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash o‘zaro aloqador (bog‘langan) va aloqador bo‘lmagan (bog‘lanmagan) guruhlarga ajratiladi:

korxonalar tomonidan tovar-xizmatlarni ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan (masalan, ishlab chiqarish texnika-texnologiyasi, marketing, xomashyo ta‘minoti va h.k.) yangi turdagi *innovation mahsulotlarni* ishlab chiqarishning amaliyotga tatbiq etilishi *o‘zaro aloqador bo‘lgan (bog‘langan) diversifikatsiyalash jarayoni* hisoblanadi. Aksincha, firma mahsulotini ishlab chiqarish jarayoniga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga firma faoliyatining kengayishi *aloqador bo‘lmagan (bog‘lanmagan) diversifikatsiyalash* hisoblanadi. Ushbu ikki yo‘nalishdagi diversifikatsiyalash jarayonlaridan birini amalga oshirishda korxonalar tomonidan qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda qaysi turdagi diversifikatsiya yo‘nalishini tanlash korxonalar tomonidan belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Odatda, diversifikatsiya jarayonlarini amalga

o'shishning dastlabki bosqichlarida o'zaro aloqador bo'lgan (bog'langan) diversifikatsiyaga ustuvorlik qaratiladi. Chunki, ushbu yo'nalishda korxonalar bir muncha tajribaga ega bo'lib, bozordagi mavqeini yanada mustahkamlash orqali firma rentabelligi ko'rsatkichini yanada rivojlantirishga erishadi. Aloqador bo'lmagan (bog'lanmagan) diversifikatsiya jarayonlari, odatda, moliyaviy jihatdan yuqori rentabellikka ega bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishdagi diversifikatsiya jarayonlari yuqori darajadagi risklilik holatining mavjudligi va boshqaruv xarajatlarining keskin ortishi bilan xarakterlanadi.<sup>16</sup>

Diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish shakliga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:<sup>17</sup>

*vertikal diversifikatsiya* – bu xo'jalik yuritish faoliyatini qiymat zanjiri asosida yuqoridan quyi bo'g'inga tomon birlashtirish. Bunda past daromadga ega bo'lgan bo'g'inlar yuqori daromad keltirayotgan faoliyat bo'g'inlari hisobidan moliyalashtiriladi. Diversifikatsiyalash amaliyotining bu turdagi shakli, odatda, bir tarmoq ichidagi korxonalar o'rtasida oqsayotgan yoki rivojlanishda ortda qolayotgan firmalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi;

*gorizontal diversifikatsiya* korxonaning o'z faoliyati yo'nalishiga yaqin bo'lgan yo'nalishlarni qo'shib olishi yoki o'zlashtirishi jarayonlarini anglatadi. Ayrim hollarda, gorizontal diversifikatsiya korxonalar faoliyatiga mutlaqo aloqador bo'lmagan yangi sohalar hisobiga ham amalga oshirilishi kuzatiladi. Aksariyat hollarda, ishlab chiqaruvchilar gorizontal diversifikatsiyalashni konglomerat (sof) diversifikatsiya bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshiradilar;

*geografik diversifikatsiya* ishlab chiqaruvchilarning mahalliy bozorlarda o'z o'rnini mustahkam egallab, maksimal darajadagi rivojlanish ko'rsatkichini qayd etganlaridan so'ng, global ustunlikka erishish maqsadida boshqa mintaqalar, hudud yoki davlatlar bozorlariga kirib borishini nazarda tutadi.

Tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, diversifikatsiya jarayonlari strategik rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim sharti

<sup>16</sup> Акимцев А.Ю. Управление диверсификацией промышленного производства. Автореф. дисс. ... к.э.н. – Саратов, 2001. – С. 26.

<sup>17</sup> Мейер А., Михайлов В., Пруцков А., Тяжов А. Диверсификация промышленного производства: от теории к практике. – Кострома-Потсдам: Костромской гос. технол. ун-т, 2007. – С. 15.



hisoblanadi. Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash amaliyoti turli yo'nalishlarda gorizontal va vertikal shaklda amalga oshirilishi mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval.

**Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash matrisasi<sup>18</sup>**

Bozor	Ichki rivojlanish	Tashqi rivojlanish
	Gorizontal diversifikatsiya	
Konsentrik	Aynan bir bozor, tegishli iste'molchilar guruhi uchun mo'ljallangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Aynan bir bozor, tyegishli iste'molchilar guruhi uchun mo'ljallangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi boshqa korxonalarni sotib olish
Konglomerat (sof)	Bozorlardagi mavjud tovar va xizmatlardan tubdan farq qiluvchi yangi innovasion mahsulotni ishlab chiqarish	Boshqa xaridorlar va bozorlarga tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni sotib olish
Texnologiya		
Konsentrik	Ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi o'xshash bo'lgan yangi turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Texnik va texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan boshqa korxonalarni sotib olish
Konglomerat (sof)	Ishlab chiqarishning texnik-texnologik jihatidan keskin farq qiluvchi yangi turdagi	Yangi turdagi texnika va texnologiyalardan foydalanayotgan

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: Новицкий Е.Г. Стратегическое планирование в высокодиверсифицированных корпоративных структурах: о мировой практике и опыте АФК "СИСТЕМА" // РЭЖ, 1999. – №8. – С. 72; Акимцев А.Ю. Управление диверсификацией промышленного производства. Автореф. дисс. ... к.э.н. – Саратов, 2001. – С. 26; Мейер А., Михайлов В., Пруцков А., Тяжов А. Диверсификация промышленного производства: от теории к практике. – Кострома-Потсдам: Костромской гос. технол. ун-т, 2007. – С. 15.